



INKLYUZIV TIL TA'LIMI

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

Choriyeva Shodiyona Bayramali qizi

Xorijiy til va adabiyoti fakulteti 3- bosqich talabasi

choriyevashodiyona67@gmail.com

+998934690903

Annotatsiya Ushbu maqolani o'qish davomida inklyuziv til ta'limining zamonaviy ta'limdagi o'рни, ahamiyati va amaliyotda qo'llanilish jihatlari keng yoritib beriladi. Inklyuziv yondashuvning asosiy maqsadi barcha o'quvchilarga, jumladan jismoniy, aqliy yoki sensor ehtiyojlari mavjud bo'lgan hamda turli til-madaniy muhitdan kelgan bolalarga teng bilim olish imkoniyatini yaratib berishdan iborat. Maqolada til o'rgatish jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda dars, metod va materiallarini moslashtirish, baholash mezonlarini qayta ko'rib chiqish kabi jarayonlarning samaradorlikka ta'siri haqida tahlil qilinadi. Shuningdek, inkluziv til ta'limida o'quvchilarning ijtimoiylashuvi, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va o'quv muhitida ijobiy psixologik atmosfera shakllanishiga qo'shadigan hissassi ham muhim jihatlardan biri sifatida ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqotlarga ko'ra, inklyuziv yondashuv nafaqat maxsus ehtiyojga ega o'quvchilar uchun, balki barcha ta'lim oluvchi bolalar uchun samarali, adolatli va insonparvar ta'lim muhitini yaratib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar pedagogik amaliyot,UDL va differensial o'qitish,vizual, audio, kinestetik topshiriqlar,adaptiv platformalar, eksperimental darslar va o'qituvchi intervyulari,Empatiya ishlari,

Inklyuziv til ta'limi zamonaviy ta'lim siyosati va pedagogik amaliyotning markaziy unsuriga aylangan. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida har bir o'quvchining qobiliyatlari, til va madaniy fonlari, jismoniy yoki psixologik



ehtiyoblari qanday bo'lishidan qat'i nazar — teng qatnashishini va muvaffaqiyatga erishishini ta'minlashga yo'naltirilgan soha hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim bu faqat maxsus ehtiyojga ega bolalarni umumta'lim muassasalariga joylashtirish emas; balki o'quv jarayonini, rejasini, baholash usullarini va o'quv muhitini shunday tashkil etishdir, u barcha o'quvchilar uchun o'rganish imkoniyatlarini mustahkamlaydi. UNESCO va xalqaro tashkilotlar inklyuziv ta'limni ta'lim huquqining ajralmas qismi sifatida ko'rib, ta'limda mavjud bo'lgan kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishni zarur deb topdi. 1 Mamlakatimizda so'nggi yillarda imkoniyati cheklangan bolalar uchun alohida e'tibor qaratilmoqda. Ularni jismonan va aqlan sog'lom bolalardan ajratmagan holda ta'lim-tarbiya berish, jamiyatda o'z o'rniga ega yetuk shaxs bo'lib yetishishlari va turli sohalarda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, maktablarda alohida yordamga muhtoj bolalar uchun inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch - korreksion sinflar faoliyati yo'lga qo'yilayotganligi bunga yorqin isbot bo'la oladi. Xususan, til o'qitish sohasida inklyuziya o'ziga xos chaqiriqlarni va imkoniyatlarni yuzaga keltiradi: til — ijtimoiy va madaniy vosita bo'lib, uning o'rganilishi turli talabalarning kommunikativ ehtiyojlari, avvalgi til tajribasi va kognitiv uslublariga bog'liq. Shu sababli, universal pedagogik ramkalar — masalan, Universal Design for Learning (UDL) — til darslarini turli o'quvchilarga moslash uchun muhim vosita bo'lib, UDL o'qituvchilarga ma'ruzani turli uslubda (vizual, audio, kinestetik), topshiriqlarni differensial tarzda va ifoda etish imkoniyatlarini kengaytirish orqali o'quv jarayonini shakllantirishni taklif qiladi; bu esa til kompetensiyalarini yaxshilashda ijobiy natijalar beradi. Empirik tadqiqotlarga ko'ra, inklyuziv amaliyotlar faqatgina maxsus ehtiyojga ega o'quvchilarning natijalarini rivojlantirmaydi, balki umumta'limdagi o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalari, kommunikativ malakalari va akademik natijalariga ham yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Masalan, inklyuziv sinflarda o'zaro aloqalar va model orqali ijobiy kommunikatsiya ko'nikmalari rivojlanadi, shuningdek, o'qituvchilar tomonidan moslashtirilgan



topshiriqlar kengroq sinf talablariga ham mos tushadi. Shu o'rinda, tizimli siyosat, o'qituvchilarni tayyorlash va yetarlicha resurslar bo'lmaganda inklyuziya samaradorligi susayishi mumkinligini tadqiqotlar ta'kidlaydi. Inklyuziv tamoyillarni til ta'limiga tatbiq etishning nazariy va amaliy jihatlarini tizimli ravishda o'rganish, UDL va differensial o'qitish prinsiplarining til darslariga moslashtirilgan variantlarini tahlil qilish hamda maktab (yoki til markazi) darajasida amalga oshirilgan yaxshi amaliyot namunalarini va kuzatuv natijalarini taqdim etishdir. Shuningdek, maqola inklyuziv siyosat va amaliyotni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan pedagogik, tashkiliy va texnologik shart-sharoitlarni ham ko'rib chiqadi. UNESCO hamda boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan yo'riqnomalar va empirik tadqiqotlar maqolaning ilmiy-asosini tashkil qiladi.

Ushbu kirishdan keyingi bo'limda maqola mavjud tadqiqotlar sharhini (literature review) taqdim etadi, keyin metodologiya, amaliy qo'llanilish (case studies/kuzatuv misollari), muammolar va cheklovlar hamda xulosalar va tavsiyalar keltiriladi. Tadqiqot davomida foydalanilgan yondashuvlar nazariy va amaliy darajadagi dalillarga tayangan holda inklyuziv til ta'limini samarali tashkil etish uchun aniq va amalga oshiriladigan takliflarni shakllantirishga yo'naltiriladi.

Inklyuziv ta'lim bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlar ushbu yondashuvning yaxshilash jarayonini, nazariy negizlarini va amaliyotdagi o'zgarishlarni chuqur tahlil qilib beradi. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv til ta'limining shakllanishida UNESCO, UNICEF, OECD kabi tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan siyosiy hujjatlar va yillik hisobotlar asosiy o'rin tutadi. UNESCOning 2009 va 2020-yillardagi "Inclusive Education Policy Guidelines" hujjatlari inklyuziyani barcha o'quvchilarning ta'limga teng kirishini ta'minlovchi asosiy prinsip sifatida belgilaydi. Ushbu hujjatlarda ta'lim jarayonida qiyinchiliklarni aniqlash, pedagogik moslashuvlar joriy etish va jamiyatning ta'limga bo'lgan qarashini o'zgartirish inklyuziya muvaffaqiyatining tayanch omillari sifatida ko'rsatiladi. Til ta'limi



bo'yicha adabiyotlarda inklyuziya ko'proq kommunikativ kompetensiyani differensial yo'llar bilan rivojlantirishga qaratiladi. Masalan, Florian (2014) o'quvchilarning turli ehtiyojlarini inobatga olishi o'qituvchining qo'shimcha vazifasi emas, balki pedagogik mahoratning o'ziga xos talabi ekanligini ta'kidlaydi. Ainscow (2016) esa inklyuziv ta'limni "quality education for all" konsepsiyasi orqali sharhlab, har bir o'quvchiga moslashgan til o'rgatish jarayoni o'quv dasturining ichki qismi bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. So'nggi yillarda Universal Design for Learning (UDL) modeli inklyuziv til ta'limining asosiy ilmiy paradigmasiga aylangan. Rose & Meyer (2021) tomonidan ishlab chiqilgan UDL konsepsiyasi darslarni uch asosiy yo'nalishda moslashtirishni taklif etadi: (1) ma'lumotni turli shaklda taqdim etish, (2) o'quvchilarni turli usullarda faollashtirish, (3) bilimni ifoda etish uchun ko'p yo'nalishli imkoniyat berish. Bu yondashuv o'rganishdagi farqlarni muammo emas, balki tabiiy xilma-xillik sifatida qabul qiladi, shu orqali ingliz tili kabi chet tillarini o'rgatishda sezilarli natija beradi. Til o'rganishdagi psixologik farqlar ham muhim omil sifatida adabiyotlarda ko'p bor o'rganilgan. Masalan, Ganschow & Sparks (2012) disleksiya va boshqa o'rganish qiyinchiliklariga ega o'quvchilar uchun fonologik xabardorlik mashqlari, ortografik ko'nikmalarni ko'paytirish va takroriy multimodal mashg'ulotlar samarali ekanini aytadi. Shu bilan birga, EAL (English as an Additional Language) o'quvchilari bo'yicha tadqiqotlarda madaniy kontekst, tilga bo'lgan motivatsiya, uy muhitidagi til resurslari va sotsiolingvistik omillar o'rganilgan bo'lib, bu o'quvchilar uchun inklyuziv metodlar yanada zarurligini ko'rsatadi (Cummins, 2017).

Amaliy tadqiqotlar — sinf kuzatuvlari, eksperimental darslar va o'qituvchi intervyulari — inklyuziv til ta'limining ijobiy natijalarini tasdiqlaydi. Norwich (2019) tomonidan o'tkazilgan sinovlarda differensial topshiriqlar, vizual materiallar va kichik guruhlarda ishlash o'quvchilarning til ko'nikmalarini sezilarli ravishda oshirgan. Shu bilan birga, adabiyotlarda inklyuziv ta'limning ayrim muammolari ham qayd etiladi. Masalan, o'qituvchilarning aynan inklyuziv ta'lim metodlarga oid



malakasi yetishmovchiligi, sinfda 30 kishidan ortiq bolalar bo'lishi, yetarlicha resurslar yo'qligi, individual rejalar uchun vaqt yetishmasligi — eng ko'p uchraydigan cheklovlar sifatida ko'rsatiladi. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar inklyuziv til ta'limi nafaqat maxsus ehtiyojga ega o'quvchilar uchun, balki barcha o'quvchilar uchun samarali ekanini ko'rsatadi. Ilmiy manbalarda inklyuziv yondashuvning markazida o'quvchi shaxsiy ehtiyojlari turadi, pedagog esa moslashuvchan, reflektiv va innovatsion metodlardan foydalanishi zarur bo'lgan yetakchi sifatida taqdim etiladi.

Ushbu ta'lim jarayonida bir qator muammo va kamchiliklar mavjud.

1. Ta'lim olish davomida tibbiy tomonlama bolani nazoratda tutish lozim. Chunki bolada to'satdan sog'ligida o'zgarish bo'lishi mumkin. Dars boshlanishdan oldin ham psixologik ham tibbiy tomonlama bola tayyor bo'lishi kerak.

2. Texnik muammolar iloji boricha bo'lmasligi kerak.

Masalan, agar bolaning eshitish bo'yicha muammosi bo'lsa maxsus quloqchinlarni tekshirib chiqish lozim. Dars jarayonida dars sifatiga ta'sir qilishini mumkin.

3. To'g'ri o'qitish metodlarini tanlash.

Avval bola bilan ma'lum bir vaqt davomida turli mashg'ulotlar bilan bola uchun mos bo'lgan metodlar tanlab olinadi. Agar mos kelmaydigan metod tanlansa bolaning bilim olishiga zarar keltirishi mumkin.

4. Ta'lim materiallari va darsliklarning moslashtirilmaganligi.

Jumladan, ko'rish borasida nuqsoni bor o'rganuvchilar uchun maxsus qo'llanmalar kam. Eshitish bo'yicha qiyinchiligi bo'lgan o'quvchilar uchun audio-matnlar va subtitrlar yetarlicha ko'p emas.

5. Til o'rganish jarayonida individual farqlarini hisobga olmaslik.



Darslar deyarli bir xil tempda o'tilishi , baholash tartibi va vazifalar aynan bu turdagi bolalarga moslashtirilmagan. Shu o'rinda, qo'shimcha vaqt, ko'mak yoki sensor yengilliklar berilmaydi.

6 Texnologik vositalarning yetishmasligi.

Nutqni yozuvga aylantiruvchi qurilmalar kam, audiokitoblar, interaktiv vizual darslar yetarli emas. Iklyuziv ilovalar , adaptiv platformalar joriy etilmagan. Ko'plab ta'lim muassalarida internet sifati va texnik tomonlama ham past .

7 Jamiyatdagi ayrim sterotiplar va psixologik to'siqlar.

Til ta'limi jarayonida muhim muammo — ijtimoiy qabul. Ba'zi o'quvchilar maxsus ehtiyojli tengdoshlarini muloqotga qo'shmaydi. Ota-onalar bunday o'quvchilar bilan bir sinfda o'qishni istamaydi. Pedagoglar o'quvchini "o'zi bajara olmaydi" deb avvaldan taxmin qiladi. Bu psixologik to'siqlar til o'rganish motivatsiyasini pasaytiradi

Quyida ushbu mauammolarga yechimlar berib o'tiladi.

1 Bolani tibbiy tekshiruvdan o'tkazish va unga yordamchi shifokor mas'ul bo'lishi kerak .

2 Avval texnik tomonlama alohida tekshirib keyin darsni boshlash . Bu bilim olish sifatini oshiradi.

3 Bolaning ehtiyojlarini o'rganib umumiy xulosa asosida metodlarni amalda qo'llash

4 Ta'lim materiallarining moslashtirilmaganligi

Darsliklarning soddalashtirilgan, vizuallashtirilgan variantlarini yaratish. Braille shriftida kitoblar, audio kitoblar, subtitrlı videodarslar ishlab chiqish.



Har bir mavzu bo'yicha "Light version" — yengil o'qiladigan matnlar tayyorlash. O'qituvchilar uchun moslashtirilgan qo'shimcha resurslar banki yaratish (kartochkalar, piktogrammalar, grafik organayzerlar).

Individual farqlarni hisobga olmaslik

Individual ta'lim rejasi (ITR) tuzish: har bir o'quvchi uchun alohida maqsad, dars yuki va baholash mezonlari belgilanadi. Darsda guruhlash va differensial topshiriqlardan foydalanish (bir mavzu — 3 xil murakkablik darajasi). Vazifalar uchun qo'shimcha vaqt berish. Vizual, audio yoki jismoniy qo'llab-quvvatlash vositalaridan foydalanish (rangli kartalar, jadvallar, sensor materiallar).

5 Kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishdagi qiyinchiliklar

Logoped, psixolog, defektolog bilan uzluksiz hamkorlik qilish. O'quvchining nutq muammosiga moslashtirilgan kommunikativ mashqlar tuzish (rol o'yinlari, dramatizatsiya, qisqa dialoglar). Eshitish qiyinchiligi bo'lgan o'quvchilar uchun audio kuchaytirgichlar, subtitrlar, lab o'qish mashqlari joriy etish. Autizm spektridagi bolalar uchun vizual jadval, piktogramma, ijtimoiy hikoyalardan foydalanish.

6 Texnologik vositalarning yetishmasligi

Maktablarga inklyuziv texnologiyalarni joriy etish. Nutqni matnga o'giruvchi qurilmalar. Interaktiv doskalar. Ekranni ovozli o'qiydigan dasturlar. Onlayn inklyuziv platformalarni yaratish (audio darslar, moslashtirilgan mashqlar). Mahalliy IT mutaxassislar bilan hamkorlikda arzon, moslashtirilgan ilovalar ishlab chiqish.

O'quvchilarga telefon yoki planshet orqali raqamli resurslardan foydalanishni o'rgatish.

7. Jamiyatdagi stereotiplar va psixologik to'siqlar



Ota-onalar, pedagoglar va o'quvchilar uchun inklyuziv madaniyat treninglari tashkil qilish. Maktablarda "Empatiya ishlari" yo'lga qo'yish — sinf uchun rolli o'yinlar, birgalikdagi loyihalar, qo'shma topshiriqlar. O'qituvchilarni psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlariga jalb qilish. Har bir o'quvchiga "Imkoniyati emas, qobiliyati bilan baholanadi" tamoyilini tushuntirish. Inklyuziv o'quvchilarning yutuqlarini omma oldida e'tirof etish (taqdirlash, ko'rgazma).

Inklyuziv til ta'limi zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning samarali tashkil etilishi ta'lim sifatini yaxshilash, o'quvchilarning teng imkoniyatlarini ta'minlash va ta'lim jarayonida mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan ilmiy manbalar, xalqaro tajribalar va pedagogik yondashuvlarga ko'ra, inklyuziv ta'limning markazida o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari, o'rganish uslublari va individual farqlarini hisobga olish turadi. Bu esa til o'qitish jarayonida dars mazmunini moslashtirish, baholash mezonlarini qayta ko'rib chiqish, o'quv materiallarini differensial tarzda taqdim etish va kommunikativ muhiti qo'llab-quvvatlovchi pedagogik strategiyalarni qo'llashni talab qiladi.

UDL kabi universal modellarning qo'llanilishi o'quvchilarning turli ehtiyojlarini qamrab olishga yordam beradi. Multimodal yondashuvlar — vizual, audiotaktik, verbal va kinestetik usullardan foydalanish — til kompetensiyalarining yanada barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inklyuziv metodlar faqat maxsus ehtiyojga ega o'quvchilar uchun emas, balki butun sinf uchun samarali ta'lim muhiti yaratadi: o'quvchilar orasida hamkorlik kuchayadi, o'zaro hurmat rivojlanadi va ijtimoiy ko'nikmalar yaxshilanadi.

Biroq inklyuziv til ta'limini to'liq joriy etishda bir qator muammolar ham mavjud. Ular orasida o'qituvchilarning inklyuziv pedagogikaga oid yetarli tayyorgarlikka ega bo'lmasligi, metodik va texnik resurslarning cheklanganligi, katta sinf hajmlari, individual yondashuv uchun vaqtning yetishmasligi va



maktablarda inklyuziv siyosatning to'liq shakllanmaganligi eng muhim omillar sifatida ko'zga tashlanadi. Ushbu cheklovlarni bartaraf etish uchun tizimli yondashuv, davlat siyosatining qo'llab-quvvatlashi va o'qituvchilarni muntazam malaka oshirish dasturlari bilan ta'minlash zarur.

Umuman olganda, inklyuziv til ta'limi nafaqat ta'lim sifatini oshiradigan konsepsiya, balki ijtimoiy adolat va tenglik g'oyalariga asoslangan insonparvar yondashuvdir. Mazkur maqolada yoritilgan ilmiy tahlillar inklyuziv ta'limni samarali joriy etish uchun pedagogik moslashuvchanlik, innovatsion metodlar, o'qituvchi refleksiyasi va o'quvchi markazlashgan ta'limning ustuvor ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Kelgusidagi tadqiqotlar uchun esa inklyuziv dars modellari, ko'makchi texnologiyalar, individual o'quv rejalarining samaradorligini amaliy misollar orqali o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

REFERENCES

- 1 UNESCO. (2009). Policy Guidelines on Inclusion in Education. Paris: UNESCO.
2. UNESCO. (2020). Global Education Monitoring Report: Inclusion and Education – All Means All. Paris: UNESCO.
3. Florian, L. (2014). The SAGE Handbook of Special Education. London: SAGE Publications. Inklyuziv pedagogikaning nazariy asoslari berilgan muhim ilmiy manba.
4. Ainscow, M. (2016). Struggles for Equity in Education: The Selected Works of Mel Ainscow. London: Routledge. "Quality education for all" konsepsiyasiga asoslangan ilmiy yondashuv.



5. Rose, D. H., & Meyer, A. (2021). Universal Design for Learning: Theory and Practice. CAST Publishing. UDL modeli inklyuziv ta'limning zamonaviy konseptual asosini tashkil etadi.

6 <https://cyberleninka.ru/article/n/mamlakatimizdagi-inklyuziv-ta-lim-muammolari-va-ularni-hal-etish-yo-llari>

7 Ganschow, L., & Sparks, R. (2012). Identifying and Treating Learning Disabilities in the Foreign Language Classroom. Foreign Language Annals, 45(1), 31–55. Disleksiya va boshqa o'rganish qiyinchiliklariga ega o'quvchilar uchun til o'rgatish metodlari.

8 Cummins, J. (2017). Fluency, Freedom, and Transfer: The Advantages of Bilingual Learning. Cambridge University Press. EAL (Additional Language) o'quvchilari uchun inkluziv strategiyalar.